



O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYODAGI TASHQI SIYOSATI. ISTIQBOLLI REJALAR, YAQIN KELAJAKDA HAL QILINISHI KERAK BO'LGAN MASALALAR

Sharopov Dilshod Ravshan o'g'li

Buxoro Davlat Universiteti o'qituvchisi

80d579oagm@il.com.

ARTICLE INFO

Received: 12th November 2023

Accepted: 12th November 2023

Online: 12th November 2023

KALIT SO'ZLAR

Markaziy Osiyo, Shaxsay Hamkorlik Tashkiloti, Janubiy Osiyo, "Harakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi", strategiya, sanksiya, koronavirus, GES, geosiyosat, global, "yaxshi qo'shnichilik", eksport, import, YelH, YIdemarkasiya, integratsiya, agregat.

KIRISH

O'zbekistonning turli qit'alardagi ko'plab davlatlar va davlat uyushmalari bilan munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bojxona boshqaruvi sohasida bojxona to'lovlari stavkalari ikki barobarga kamaytirildi, 3 ming 550 ta mahsulot nomlariga va 1 ming 122 turdagи mahsulotlarga aksiz solig'iga import bojlarining nol stavkalari qo'llana boshlandi. 2016-2020 - yillarda barcha manbalar hisobidan asosiy kapitalga jami 89 mlrd dollarlik investisiya kiritildi, ulardan 19,5 mlrd dollari to'g'ridan to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlardir. O'zbekistonning Qирг'изистон bilan tashqi savdo aylanmasi 2021 yilga nisbatan 32,1 foizga o'sib, 1,3 milliard dollarni tashkil etdi, bunda eksport hajmi 979,3 million dollarga, import hajmi esa 280,7 million dollarga teng bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Markaziy Osiyoda barqarorlik va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda samarali va ko'p tomonlama mexanizmlar qatorida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, xususan, SHXT, YIH, Y.I doirasidagi ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzu yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi turlarga ajratamiz.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati bilan bog'liq diplomatik munosabatlar va undagi istiqbolli rejalar, yaqin kelajakda hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar mazmun - mohiyati atroflicha tahlil qilingan.

1. Mustaqillik yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar.
2. 1991 - 2023-yillarda olib borilgan siyosiy va iqtisodiy aloqalarga oid tahlillar.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasidagi eng katta ulush Qozog'istoniga to'g'ri keladi – 62 foiz. Qirg'iziston 17 foiz, Turkmaniston 12 foiz va Tojikiston 9 foizdan iborat bo'lgan. Transport va logistika sohasidagi hamkorlik strategik ahamiyatga ega ekani qayd etildi. "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temir yo'lini qurish bo'yicha ishlarni faollashtirish, "Andijon – O'sh – Irkishtom" avtomobil yo'lining salohiyatini to'liq ishga solish, shu maqsadda qo'shma transport-logistika kompaniyasini tashkil etishga kelishib olindi. Muzokaralarda energetika sohasidagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratildi. Gidroenergetikadagi loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan, Qambarota GES-1 qurilishi borasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlarni jadallashtirish zarurligi qayd etildi. 2022 - yil yakunlari bo'yicha tashqi savdo aylanmasi 1,3 milliard dollarni (o'sish 32,1 foiz) tashkil etib, eksport hajmi 979,3 million dollarga, import hajmi esa 280,7 million dollarga teng bo'lgan. Ko'plab ijobjiy o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo mamlakatlari oldida bir qancha hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar mavjud.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtaisdagi chegaraviy muammolar: SSSR qulaganiga 30 yildan oshgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo mintaqasida chegaraviy muammolar to'la hal etilgani yo'q. So'nggi yillarda davlat chegaralarini huquqiy rasmiylashtirish hamda chegaradagi bahsli hududlar muammosini uzil-kesil hal etish borasida bir qancha amaliy harakatlar o'tkazildi. Xususan, Samarkand shahrida 2017 yil 10-11 noyabr kunlari BMT shafe'ligida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik» mavzusidagi xalqaro konferensiyada O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston o'rtaisdagi bahsli nuqtalar bo'yicha kelishuvga erishildi.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 9 martida Tojikistonga tashrifi vaqtida chegaralardagi muammolarni hal qilish borasidagi asosiy natijalar bo'yicha kelishuv imzolandi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023 yil boshida Qirg'izistonaga davlat tashrifi vaqtida tomonlar oxirgi ikki yilda o'zaro munosabatlarni mutlaqo yangi darajaga olib chiqishga erishgani ta'kidlandi. O'zbekiston – Qirg'iziston chegarasining delimitasiyasi yakuniga yetkazilgani esa tarixiy voqealari sifatida e'tirof etildi.

Shunday bo'lsa-da, Qirg'iziston-Tojikiston chegarasidagi vaziyat keskinligicha qolmoqda. Bu esa mintaqada integrasiya jarayonlariga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Markaziy Osiyoda chegaralarni delimitasiya va demarkasiya qilishda asosiy muammolardan biri – mintaqaning barcha mamlakatlari tomonidan tasdiqlanib, tartib-taomillaridan o'tgan huquqiy asos yo'qligidir.

Bundan tashqari chegaraviy va mintaqadagi energetika sohasidagi eng katta tavakkalchilik hisoblangan Rog'un GESi bir necha yillar davom etgan Tojikiston va O'zbekiston o'rtasidagi suv janjaliga sabab bo'lgan edi. Rasmiy Dushanbe 2018 - yil so'ngiga qadar Tojikistonda barpo etilayotgan Rog'un GESining biryo'la uch agregati ishga tushirilishini xabar bergen edi.

— Yirik GESlarni yaqin qo'shnilar ishtirokisiz barpo etish faqat mojaro potensialining yoyilishiga sabab bo'ldi, bu esa turli ekstremistik kuchlar faollashuvi ehtimoli bor sharoitda o'ta xavfli hisoblanadi. Elektr energiyasini sotish ortidan keladigan har qanday foyda yaxshi qo'shnichilik aloqalari o'rnnini bosa olmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar tufayli Tojikiston va Qirg'izistonda baland tog' daryolarining gidroenergetik salohiyatidan foydalanish zaruriyati daryoning qo'yi qismidagi davlatlarda suv oqimining nazoratidan ularga qarshi siyosiy richag sifatida foydalanish xavotirini keltirib chiqaradi. Biroq, bir vaqtning o'zida Qozog'istonda ham, O'zbekistonda ham suv resurslaridan oqilona foydalanish tartibi joriy etilishi lozim, buni Orol dengizining quriyotgani ham ko'rsatib turibdi. Shu sababli, Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro ishonch muhitiga juda muhtoj.

Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi: Hozirgi paytda Markaziy Osiyodagi suv resurslarining 90 foizi sug'orma dehqonchilik uchun ishlatilmoqda. Suv qishloq xo'jaligining asosi hisoblanadi va bu tarmoq Markaziy Osiyodagi beshta mamlakat iqtisodiyotida ham muhim rol o'ynaydi, chunki qishloq xo'jaligi sohasi mazkur mamlakatlar YAIMning 10 foizidan 45 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi. Kelajakda Markaziy Osiyoda suv manbalarining kamayib borish tendensiyasi ro'y berish ehtimoli mavjud. Xususan, muzliklar mintaqadagi suv resurslarining asosiy manbayi hisoblanadi va ularning eng katta qismi Tojikiston hududiga to'g'ri keladi. Bu yerdagi muzliklar Markaziy Osiyo suv resurslarining 60 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi. Ob-havo o'zgarishi bilan Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish va xavfsizligini ta'minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etib boraveradi. Shu sabab mintaqaga mamlakatlari bu masalani oliy darajada qayta ko'rib chiqib, tegishli dastur va strategiya ishlab chiqishi kerak.

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo hamkorligida yangi davr: 2022 yil 17-18 noyabr kunlari Samarqand shahrida "Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo" formatidagi tadbirlar o'tkazildi. Jumladan, 17 noyabr kuni Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoda barqaror energiyani rivojlantirishga qaratilgan yangi loyihasiga bag'ishlangan davra suhbati va "Markaziy Osiyo yoshlari ovozi" forumi tashkil etildi. 18 noyabr kuni esa "Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'zaro bog'liqligi: barqaror rivojlanish uchun global darvoza" mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning konferensiya qatnashchilariga murojaatnomasini davlatimiz rahbarining tashqi siyosiy masalalar bo'yicha maxsus vakili Abdulaziz Komilov o'qib eshittirdi. Shavkat Mirziyoyev o'z murojaatida bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar va oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan turli ziddiyatlar, global siyosiy va iqtisodiy beqarorlik, turli zamonaviy tahdidlar mintaqalar va davlatlar o'rtasidagi hamjihatlik va o'zaro manfaatli sheriklikni yanada kengaytirishni taqozo qilayotganini qayd etdi.

Samarqand shahrida bo'lib o'tgan mazkur anjuman Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasida muloqotlarni faollashtirish, hamkorlikni amaliy dastur va loyihalar bilan boyitish, mintaqalararo ochiq va samarali aloqalar tizimini shakllantirish, ko'p qirrali sheriklikni yanada chuqurlashtirishga qaratilganligi bilan katta ahamiyat kasb etdi.

XULOSA

Mintaqa taraqqiyotida tashqi omillardan ko'ra ichki omillar, ya'ni mintaqada davlatlarining ichki imkoniyatlari va ulardan nechog'lik samarali foydalanish ko'proq ahamiyat kasb etadi. Mintaqa rivojida shu hududda joylashgan har bir davlatning ulushi bor. Jumladan, O'zbekistonning roli va geosiyosiy pozitsiyasi nihoyatda katta.

MUHOKAMA

Markaziy Osiyoning xavfsizlik va barqarorlik holatini ta'minlash, mavjud bo'lgan tahdidlar oldini olish uchun samarali mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bu kabi mexanizmlarni yaratishning mintaqada davlatlarida fan-texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo'nalishini aniqlash bilan hamohanglikda olib borilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Bugungi kun nuqtai-nazari bilan qaralsa muammolarni hal qilish orqali hamkorlikdan ko'ra, hamkorlik orqali muammolarni bartaraf etish tamoyiliga amal qilishimiz ko'proq naf beradi. Chunki, hamkorlik yangi imkoniyatlар eshigini oolib, hamjihatlikda muammolar yechimini topishga xizmat qiladi.

Ulkan GESlar qurilishi muammosini hamkorlikda mavjud kichik GESlarni modernizatsiya qilib foydalanish, muqobil energiya beruvchi texnologiyalarni joriy qilish yoki GESlardan keladigan foydani qoplashi mumkin bo'lgan turizmni rivojlantirish orqali yechimiga erishish mumkin.

Bunday jarayonlar mintaqada geosiyosiy mavhumlik saqlanib qolishiga, davlatlarni ko'p tomonlama siyosat yuritishiga, pirovardida hamkorlik jarayonlarining samarali kechishiga salbiy ta'sir qiladi. Mintaqada yetakchi davlatlarning manfaatlari to'qnashuvi davom etar ekan, mintaqaviy yaxlitlik vujudga kelmaydi. Siyosatchilar mintaqa yirik davlatlar manfaatlari to'qnashadigan hudud ekanligi, bu ko'plab muammoli jarayonlarga sabab bo'lishini ta'kidladilar. Bunday fikrlarga qo'shilgan holda, yana shuni ham qayd qilish lozimki, biz shunday imkoniyatdan unumli foydalanishimi, bir davlatning bosimini qaytarishda ikkinchi bir davlatning muvozanatidan, foydalanish imkoni mavjud.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleysi-20-09-2017>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/3107036>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. <https://kun.uz/news/2023/01/28/ozbekistonning-markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-savdo-aylanmasi-75-mlrd-dollarga-yetdi>
5. Rog'un GESi: Tojikiston va O'zbekiston o'rtaqidagi suv janjalini qanday bartaraf etish mumkin
6. Shavkat Mirziyoyev Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtaqidagi «Globaldarvoza» tashabbusi haqida gapirdi <https://daryo.uz/k/2022/11/18/shavkat-mirziyoyev-yevropa-ittifoqi-va-markaziy-osiyo-ortasidagi-global-darvoza-tashabbusi-haqida-gapirdi/>
7. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi bo'lim boshlig'i Farrux Hakimovning "Markaziy Osiyoda mintaqaviy rivojlanish dinamikasi va " 5+1" ko'p tomonlama hamkorlik formati" maqolasi. <https://strategy.uz/index.php?news=1446>

8. Umarov, B. (2023). ARAB MANBALARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI ("KITOB AL-MASOLIK VAL MAMALIK" MISOLIDA). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 38(38).
9. O'G'Lи, U. B. B., & Temirov, F. (2023). Sources of information on the socio-economic life of the Somanian dynasty. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(3), 35-41.
10. Umarov, B. B. O. (2022). Science, education and culture during the rule of the Somanians. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
11. Umarov, B. (2023). ABU BAKR NARSHAXIY ASARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (2), 166-166.
12. Sulaymonov, I. I. (2020). An artistic interpretation of Babur's personality in world literature. *Journal of critical reviews*. Received, 24, 6218-6223.
13. Sulaymonov, I. I. (2018). Description of Victorious and Vanquished Man psychology in «Boburnoma». *International Journal of Science and Research (IJSR)*.-India, 7(1), 1220-1223.
14. Сулаймонов, И. И. (2016). Роль суфийского ордена накшбандия в формировании и эволюции мировоззрения Бабура. *ПАЁМИ*, (1925), 181.
15. Sulaymonov, I. I. (2017). Analysis of Babur's opinion about Shaybanikhan. Philadelphia, USA. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 9(53), 196-200.
16. Sulaymonov, I. (2019). BOBUR'S POINT OF VIEW ON THE HISTORY OF THE PAST AND ORDEAL. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
17. Isomiddinovich, S. I. (2023, February). «BOBURNOMA» DA SHAXS RUHIYATI TASVIRI VA MUALLIF MAHORATI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 11.02, pp. 179-184).
18. Isomiddinovich, S. I. (2021). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIYOTI TADQIQOTCHISI.
19. Сулаймонов, И. И. (2021). АНАЛИЗ МНЕНИЙ БАБУРА О ШЕЙБАНИХАНЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 578-588.
20. Sulaymonov, I. I. (2021). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIYOTI TADQIQOTCHISI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 549-559.
21. Sulaymonov, I. (2020). " Boburnoma" depicts the victory and defeat of Shohbegim. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 1(5), 180-188.

22. HASANOV, S. (2019). CHINGIZ AYTMATOV VA O 'ZBEK ADABIYOTI. *Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKCLAD)*, 3(1), 86-93.
23. Хасанов, Ш. А. (2018). ИЗОБРАЖЕНИЕ ЛИРИЧЕСКИХ ПЕРЕЖИВАНИЙ В ПОЭЗИИ АЙБЕКА. *Theoretical & Applied Science*, (2), 163-165.
24. Ходжакулов, С. Х. (2021). XX АСР БОШЛАРИ ЖАДИД АДАБИЁТИДА ЛИРИК ЖАНРЛАРНИНГ ЭВРИЛИШ МАСАЛАСИ ВА УНИНГ АЙРИМ МОДЕРНИСТИК ТАМОЙИЛЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
25. Хужақулов, С. (2021). Некоторые особенности таджикской джадидской поэтики начала 20 века. Иностранный филология: язык, литература, образование, (2 (79)), 40-44.
26. Kholmahmatovich, K. S. (2020). Historical and national foundations of the evolution of the literary process in the second half of the xix century and the beginning of the xx century. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(12), 103-108.
27. Косимова, Н. Д. (2018). Психологическое исследование эмпатии школьников. *Современное образование (Узбекистан)*, (6), 19-23.
28. Қосимова Наргиза Дилмуровдовна (2020). ЎСМИРЛИК ДАВРИ ДЕВИАНТ ХУЛҚИННИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ПРОФИЛАКТИКАСИ. Современное образование (Узбекистан), (4 (89)), 48-53.
29. Қосимова Наргиза Дилмуровдовна (2019). Ўсмирларнинг ота-она ҳақидаги установкаларини ўрганиш, тенгдошлар таъсири ва «Ибрат» феномени диагностикаси. Современное образование (Узбекистан), (5 (78)), 15-22.
30. Bobur, S. (2018). Innovative development of tourism in Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 1(1), 60-74.
31. Faffarova, Г., & Қодиров, Б. (2020). Рақамлаштириш-инновацион ривожланиш омили сифатида. *Academic Research in Educational Sciences*, 1(2), 104-112.
32. Гаффарова, Г., & Кодиров, Б. (2020). РАЦАМЛАШТИРИШ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ОМИЛИ СИФАТИДА. *Academic research in educational sciences*, (2), 104-112.
33. Qodirov, B. S., & Amanov, A. A. (2020). O'ZBEKİSTON SSRDA KASABA UYUSHMASI VA UNİNG MUSTAQİLLİK YILLARINİNG O'ZBEKİSTONDAGI QIYOSIY TAHLİLİ. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 105-108).
34. G'affarova, G., & Qodirov, B. (2022). Structural fundamentals of action strategy. *Journal of Positive School Psychology*, 6(4), 9492-9500.
35. Sobirjonovich, K. B. (2021). THEORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN. *European science review*, (7-8), 13-16.
36. Faffarova, Г., & Қодиров, Б. (2023). STRATEGY OF ACTIVITY AND SYSTEMATICAL APPROACH. *Scientific Journal of the Fergana State University*, (2), 47-51.
https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol_iss2/a47-51
37. Qodirov, B. S. (2021). ВАЖНОСТЬ СТРАТЕГИИ ДЕЙСТВИЙ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ. *Theoretical & Applied Science*, (8), 75-78.
38. Қодиров, Б. (2021). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ КЛАСТЕРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 116-122.